**Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 24 fevraldagi 106-son qarori ijrosini samarali tashkil etish bo‘yicha**
**NAZORAT REJASI**

**07.01.2026-y. holatiga**

| T/r | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| **I. Institut faoliyatini samarali tashkil etish** | | | | | |
| 1. | Statistika agentligi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining (keyingi o‘rinlarda – Institut) o‘quv va ilmiy faoliyatini samarali tashkil etish, innovatsion muhitni yaratish orqali raqobatbardoshligi oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish. | 1. Institutning ta’lim muassasalari uchun belgilangan normativlarga muvofiq tashkiliy tuzilmasi va shtatlar jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2025 yil 6 / 10 mart | Sh.Shukurov M.Ergasheva | **Bajarildi.** Institut tuzilmasi Milliy statistika qo‘mitasining 2025 yil 6 martdagi 70-k-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlandi. Shtatlar jadvali 2025 yil 7 mart kuni Milliy statistika qo‘mitasi bilan kelishilgan holda tasdiqlandi. |
| | | 2. Institut Ustavini qayta ishlab chiqish, tasdiqlash va belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, yangi tuzilmaga muvofiq tarkibiy bo‘linmalar to‘g‘risidagi nizomlarni va lavozim yo‘riqnomalarini ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2025 yil 10 / 20 mart | Sh.Shukurov, M.Ergasheva, T.Tuxtasinov, Sh.Xudayarov | **Bajarildi.** Institut Ustavi MSQning 2025 yil 13 martdagi 23-son buyrug‘i bilan tasdiqlandi va 19 mart kuni Davlat xizmatlari markazida davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Institut barcha tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi Nizomlar hamda lavozim yo‘riqnomalari ishlab chiqildi va tasdiqlandi. |
| | | 3. Institut kafedralari va boshqa tarkibiy bo‘linmalarini malakali professor-o‘qituvchilar, yetarli tajribaga ega bo‘lgan ilmiy va boshqa xodimlar bilan to‘ldirish. | 2025 yil 17 / 27 mart | Sh.Shukurov B.To‘rayev, A.Abduvaliyev, M.Ergasheva | **Bajarildi.** 2025 yil 26 martdagi 21-k-sonli buyurug‘iga asosan Iktisodiyot falsafa doktori (PhD), dotsent Umarov Omonilla Saydaminovich Statistika tadkikotlari va innovatsiyalarni rivojlantirish bo‘limiga ishga qabul qilindi. |

| T/r | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 4. O‘quv jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish, ilmiy tadqiqot va ma'lumotlarni tahlil qilish uchun innovatsion muhitni yaratish, statistika va AKT sohasida olimlar va amaliyotchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantirish hamda Institutning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida Jahon bankining "O'zbekiston statistika tizimi salohiyatini mustahkamlash" loyihasini amalga oshirish uchun ajratilgan mablag‘lar hisobidan **"Raqamli statistika" ilmiy - amaliy laboratoriyasi**ni tashkil etish. | 2025 yil mart | E.Ziyayev, Sh.Shukurov A.Abduvaliyev, Q.Xudoyqulov | **Bajarildi.** Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-martdagi 113-son qarori hamda "O'zbekistonda statistika tizimi salohiyatini mustahkamlash" loyihasi mablag‘lari hisobiga Institutda "Raqamli statistika" ilmiy-amaliy laboratoriyasi tashkil etilgan va uning faoliyatini amalga oshirish uchun:<br>- Institutning 2025-yil 14 yanvardagi 5-sonli buyrug‘i bilan "Raqamli statistika" ilmiy-amaliy laboratoriyaning asosiy faoliyatlari belgilandi;<br>- Institut Ilmiy kengashning 2025-yil 10 fevraldagi 4-son bayoni hamda Institutning 2025-yil 14-fevraldagi 19-son buyrug‘i bilan "Raqamli statistika" ilmiy-amaliy laboratoriya Nizomi tasdiqlangan;<br>- Institutning 2025-yil 14 fevraldagi 14-sonli buyrug‘i bilan "Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida 2025-yilda amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar dasturi"ga doktorantlar va izlanuvchilar jamoatchilik asosida ilmiy izlanishlarni amalga oshirish uchun biriktirilishri. |
| | | 5. "Raqamli statistika" ilmiy-amaliy laboratoriyasi uchun yetarli maydonga ega bo‘lgan xona ajratish, tegishli tartibda jihozlash uchun zarur bo‘lgan mebel, ko‘rgazmali materiallar va texnik vositalar va dasturiy | 2025 yil mart | E.Ziyayev, Sh.Shukurov A.Abduvaliyev, Q.Xudoyqulov | **Bajarildi.** **"Raqamli statistika" ilmiy-amaliy laboratoriyasi** institutning 210 - xonasida joylashtirildi va zarur mebel, ko‘rgazmali materiallar va texnik |

| T/r | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | ta'minot bilan ta'minlash. | | | vositalar va dasturiy ta'minot bilan ta'minlandi.<br>26.02.2025 y. Jahon bankining mas'ul vakillari ishtirokida "Raqamli statistika" ilmiy-amaliy laboratoriyasi rasmiy ochilishi o'tkazildi. |
| 2. | Institutning o'quv va ilmiy tadqiqot, shu jumladan fundamental statistik tadqiqotlarini amalga oshirish yo'nalishidagi faoliyatini yanada takomillashtirish. | 1. Xalqaro tajribaga asosan qayta tayyorlash, malaka oshirish va mustaqil ta'lim olish orqali statistika sohasida kadrlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini uzluksiz rivojlantirish tizimini takomillashtirib borish, shuningdek, fundamental statistika tadqiqotlarini amalga oshirish yuzasidan takliflar tayyorlash bo'yicha Institut huzurida o'z ishini jamoatchilik asosida amalga oshiradigan va doimiy faoliyat yurituvchi E**kspertlar kengashini** tuzish. | 2025 yil 1/10 aprel | Sh.Shukurov, B.E.To'rayev, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>Institut huzurida jamoatchilik asosida faoliyat olib boradigan Ekspertlar kengashini tuzish (2.1 – band) maqsadida Ekspertlar kengashining tarkibi va Ekspertlar kengashining Nizomi (2.2 – band) va buyruq loyihalari ishlab chiqildi va shu yil 18 – mart kuni 01/1-04-12-86 – sonli xat bilan Milliy statistika qo'mitasiga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritildi. |
| | | 2. Institut huzurida doimiy faoliyat yuritadigan E**kspertlar kengashining tarkibini (**Statistika agentligi, Institut, turdosh oliy ta'lim va ilmiy – tadqiqot muassasalarining tajribali vakillaridan iborat) **va uning nizomini** ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2025 yil 15/25 aprel | Sh.Shukurov, B.E.To'rayev, A.Abduvaliyev, T.Tuxtasinov | **Bajarildi.**<br>Institut huzurida jamoatchilik asosida faoliyat olib boradigan Ekspertlar kengashini tuzish (2.1 – band) maqsadida Ekspertlar kengashining tarkibi va Ekspertlar kengashining Nizomi (2.2 – band) va buyruq loyihalari ishlab chiqildi va shu yil 18 – mart kuni 01/1-04-12-86 – sonli xat bilan Milliy statistika qo'mitasiga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritildi. |
| **II. Tizim xodimlarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini uzluksiz oshirib borish tizimini tashkiliy-huquqiy jihatdan takomillashtirish** | | | | | |
| 3. | "Davlat fuqarolik xizmati | 1. Qayta tayyorlash, malaka oshirish va | 2025 yil | Z.Talipova, | **Bajarildi.** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | to‘g‘risida”gi Qonun va Yangi O’zbekiston ma’muriy islohotlari talablariga muvofiq Statistika agentligi tizimida xodimlarning malaka oshirish, qayta tayyorlash va mustaqil ta’lim olish asosida o‘z kasbiy bilim va ko‘nikmalarini uzluksiz oshirib borishning samarali tizimini yo‘lga qo‘yish. | mustaqil ta’lim olishni o‘z ichiga oluvchi tizim xodimlarining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini uzluksiz oshirib borish tizimini joriy etish. | 17 / 27 mart | Sh.Shukurov B.To‘rayev, B.Ataniyazov | MSQ tizimi xodimlarining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini uzluksiz oshirib borish tizimini 3.1 – band) hamda mustaqil ta’lim olish orqali o‘z kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish natijalarini baholash va rag‘batlantirish tizimini joriy etish (3.2 – band) bo‘yicha MSQning buyrug‘i loyihasi ishlab chiqildi va shu yil 19 – mart kuni 01/1-04-12-88 – sonli xat bilan MSQga kiritildi. |
| | | 2. Tizim xodimlarining mustaqil ta’lim olish orqali o‘z kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish natijalarini baholash va rag‘batlantirish tizimini joriy etish. | 2025 yil 15 / 25 aprel | Z.Talipova, Sh.Shukurov B.E.To‘rayev | **Bajarildi.** MSQ tizimi xodimlarining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini uzluksiz oshirib borish tizimini 3.1 – band) hamda mustaqil ta’lim olish orqali o‘z kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish natijalarini baholash va rag‘batlantirish tizimini joriy etish (3.2 – band) bo‘yicha MSQning buyrug‘i loyihasi ishlab chiqildi va shu yil 19 – mart kuni 01/1-04-12-88 – sonli xat bilan MSQga kiritildi. |
| | | 3. O’quv jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish va monitoring qilish imkoniyatini yaratish maqsadida maxsus elektron platformani ishlab chiqish va ishga tushirish. | 2025 yil 25 mart / 25 aprel | Z.Ziyayev, Sh.Odilov, Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.** 2025 yil dasturiga kiritilgan o‘quv kurslari bo‘yicha o‘quv materiallari (o‘quv rejalar, dasturlar, ishchi reja va dasturlar, ma’ruza matnlari, testlar) “O’quv–uslubiy materiallar 2025” elektron bazasiga va institut saytiga joylashtirildi. |
| | | 4. Statistika agentligi tizimi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi | O’quv kursini tashkil | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, | **Bajarilmoqda.** O’zbekiston Respublikasi Milliy |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | uchun zamonaviy, shu jumladan, elektron formatdagi o‘quv materiallarini (ma’ruza matnlari, taqdimot materiallari, testlar, adabiyotlar ro‘yxati) yaratish. | etilishiga qarab | Kafedra mudirlari | statistika buyurtmasi asosida Institutda 2025 yilda bajariladigan ilmiy-tadqiqot dasturiga muvofiq:<br>- “Statistika Data Analitics” ta’lim uslubiyotini yaratish ishlari amalga oshirilmoqda.<br>- O’quv jarayonlarni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish va monitoring qilishga mo‘ljalangan maxsus “Elektron platforma” ishlab chiqilmoqda. |
| | | 5. Statistika agentligi tizimi xodimlari uchun jahon ilmiy-texnik ma’lumotlarning elektron axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini ta’minlash. | 2025 yil 25 mart / 25 aprel | A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>Institutning “Elektron statistika” xalqaro ilmiy nashrlar kutubxonasida, “ZNANIUM.ru” ilmiy-axborot elektron-resursiga obunasi 2025 yil uchun tashkil etilgan. Shuningde,“ZNANIUM.ru” mutaxasisi ishtirokida tizimdan foydalanish bo‘yicha vebinar o‘tkazildi va unda xodimlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar ishtirok etishdi.<br>“ZNANIUM.ru” resurslaridan 2025 yil davomida institut xodimlari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, stajyor tadqiqotchilar va o‘quv kurslari tinglovchilari bepul foydalanish imkoniyatiga ega. |
| 4. | Statistika agentligi tizimi xodimlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish va mustaqil ta’lim olishi bo‘yicha mavjud normativ-huquqiy bazani takomillashtirish. | 1. “Rasmiy statistika to‘g‘risida” va “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonunlarga muvofiq xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish faoliyatini tartibga soluvchi quyidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish (qayta ko‘rib chiqish) va tasdiqlash:<br>Rasmiy statistika sohasida kadrlarning kasbiy malaka, bilim va ko‘nikmalarini uzluksiz ravishda | 2025 yil: mart - may<br>20 mart | A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>Quyidagi nizomlar va tartiblar Milliy statistika qo‘mitasining 2025 yil 30-maydagi 58-son buyrug‘i bilan tasdiqlandi:<br>- “Rasmiy statistika sohasida kadrlarning kasbiy malaka, bilim va ko‘nikmalarini uzluksiz ravishda |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | oshirib borish tartibi to‘g‘risida nizom;<br>Rasmiy statistika sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to‘g‘risida nizom;<br>Statistika agentligi tizimida qayta tayyorlash o‘quv kurslari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida nizom;<br>Rasmiy statistika sohasida kadrlarni masofadan qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibi;<br>Rasmiy statistika sohasida mustaqil ta’lim olgan kadrlar va malaka oshirish kurslari bitiruvchilarining bilimini baholash tartibi | 20 mart<br>15 aprel<br>25 aprel<br>15 may | | oshirib borish tartibi to‘g‘risida nizom”;<br>- “Rasmiy statistika sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to‘g‘risida nizom”;<br>- “O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi tizimida qayta tayyorlash o‘quv kurslari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida nizom”;<br>- “Rasmiy statistika sohasida kadrlarni masofadan qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibi”;<br>“Rasmiy statistika sohasida mustaqil ta’lim olgan kadrlar va malaka oshirish kurslari bitiruvchilarining bilimini baholash tartibi”. |
| | | 2. Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti professor-o‘qituvchilarining o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-uslubiy va ma’naviy-ma’rifiy ish turlari hajmini hisoblash qoidalarini qayta ko‘rib chiqish va tasdiqlash. | 2025 yil<br>15 / 25 aprel | Sh.Shukurov,<br>A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti professor-o‘qituvchilarining o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-uslubiy va ma’naviy-ma’rifiy ish turlari hajmini hisoblash qoidalari ishlab chiqildi va Milliy statistika qo‘mitasiga kelishish uchun kiritildi (Yo‘llanma xat: 2025-yil 30-iyul №01/2-04-12-186) |
| **III. Institutning kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, statistika bo‘yicha savodxonligini oshirish yuzasidan faoliyatini takomillashtirish** | | | | | |
| 5. | Statistika agentligi xodimlarini qayta tayyorlash | 1. Tizim xodimlarini kasbiy qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlarida | Dastur bo‘yicha har | Sh.Shukurov,<br>A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>Jahon bankining moliyaviy ko‘magi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | va malakasini oshirish tizimini to‘liq qayta ko‘rib chiqish va “Rasmiy statistika to‘g‘risida” va “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonunlar va yangi O’zbekiston ma’muriy islohotlari talablari asosida takomillashtirish. | zamonaviy o‘qitish uslublari va ta’lim vositalari, jumladan, virtual modellar, interfaol texnologiyalar yordamida sifatli ta’limni tashkil etish. | yili | | asosida institutning 209 va 210 o‘quv xonalari to‘liq ta’mirlandi. Shuningdek, ushbu xonalar zamonaviy o‘qitish vositalari bilan ta’minlandi: 2ta interfaol doskalar, 9ta noutbuk kompyuterlar, 22ta monoblok kompyuterlar, 2ta printer (3x1) bilan ta’minlandi.<br>Kompyuterlar “STATA” amaliy-dasturiy paketi hamda elektron kutubxona dasturlari bilan jihozlandi.<br>Shuningdek, Koreya statistika idorasi (KOSTAT) ko‘magida Koreya Hukumatining beg‘araz yordami dasturi (ODA) doirasida institutining 107-o‘quv xonasi to‘liq ta’mirlanmoqda hamda mazkur xona yangi zamonaviy kompyuterlar va texnika vositalari bilan jihozlanadi. |
| | | 2. Institutda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini to‘liq qayta ko‘rib chiqish va xorij, ayniqsa, Koreya tajribasi asosida kelgusida yangidan tashkil etiladigan kurslar bo‘yicha taklif tayyorlash. | 2025 yil 15 / 30 may | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>Milliy statistika qo‘mitasiga 2025-yil 17 iyulda 01/2-01-12-179-sonli xat bilan Institutda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini xorij tajribasi va ayniqsa, Koreya tajribasi asosida yangidan tashkil etiladigan kurslar bo‘yicha asoslantirilgan taklif tayyorlandi va kiritildi. |
| | | 3. Tarmoqlar statistikasi uslubiyoti va amaliyoti hamda AKT yo‘nalishi bo‘yicha amaldagi malaka oshirish kurslari o‘quv dasturiga katta hajmdagi ma’lumotlar (Big data)ni qayta ishlash va tahlil qilish, raqamli texnologiyalarga (bulutli hisoblash, sun’iy intellekt, blokcheyn, buyumlar Internet, | 2025 yil dan boshlab | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>2025 yil qayta tayyorlash (1 ta) va malaka oshirish (15 ta) kurslari o‘quv dasturlariga katta hajmdagi ma’lumotlar (Big data)ni qayta ishlash va tahlil qilish, raqamli texnologiyalar - bulutli |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mobil, virtual rekallik) doir mavzularni kiritish va tinglovchilarga o‘rgatish. | | | hisoblash, sun’iy intellekt, blokcheyn, buyumlar Internet, mobil, virtual reallik, STATA dasturiy paketiga doir mavzular kiritilgan. |
| | | 4. Tizim xodimlariga STATA amaliy-dasturiy paketidan foydalanishni o‘rgatish maqsadida alohida maxsus o‘quv kursini tashkil etish, o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tish uchun tajribali mutaxassis jalb etish. | 2025 yil dan boshlab | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.** 2025 yil dasturiga “STATA amaliy-dasturiy paketi asosida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish” o‘quv kursi kiritildi. Joriy yilning iyun – noyabr oylarida 4 ta guruhda jami 82 nafar tizim xodimi ushbu kursda o‘z malakasini oshiradi. |
| | | 5. Tizim xodimlarining raqamli iqtisodiyot texnologiyalari bo‘yicha malakasini oshirish maqsadida “Raqamli iqtisodiyotda katta hajmdagi ma’lumotlar (Big data) va sun’iy intellekt” o‘quv kursini tashkil etish. | 2025 yildan boshlab | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.** 2025 yil dasturiga “Raqamli iqtisodiyotda katta hajmdagi ma’lumotlar (Big data) va sun’iy intellekt” o‘quv kursi kiritildi. Joriy yilning mart - oktyabr oylarida 3 ta guruhda jami 48 nafar tizim xodimi ushbu kursda o‘z malakasini oshiradi. |
| | | 6. Institutda tashkil etiladigan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida amaliyotga doir darslarni o‘tkazishga, Statistika agentligi tarmoq boshqarmalarining ilmiy darajali (yoki magistr darajasiga ega) va katta tajribaga ega bo‘lgan rahbar va yetuk mutaxassis xodimlarini qonunchilikda belgilangan tartibda jalb etish. | Kurs tashkil etilishiga qarab, yil davomida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.** O’quv kurslarida dars o‘tishlari uchun MSQning 8 nafar rahbar va yetuk mutaxassis xodimlari tashqi o‘rindoshlik (0,25 stavka) asosida, yanvar-mart oylarida 6 nafar xodimlar esa soatbay haq to‘lash sharti bilan jalb etilgan. |
| 6. | Qayta ko‘rib chiqilgan va yangidan tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari bo‘yicha o‘quv-uslubiy materiallarni sifatli tayyorlash va ularning | 1. Qayta ko‘rib chiqilgan va 2025 yil dan boshlab yangidan tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari (4 ta kurs) bo‘yicha:<br>o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini ilg‘or xorij tajribasini ham inobatga olgan holda to‘liq qayta ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash; | 2025 yil 20 mart / 25 aprel | Sh.Shukurov, B.To‘rayev, B.Ataniyazov, S.G’ulomov, A.Siddikov | **Bajarildi.** 2025 yil dasturiga kiritilgan “Uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish”, “Milliy hisoblar tizimi”, “Raqamli iqtisodiyotda katta hajmdagi ma’lumotlar (Big data) va |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | elektron bazasini shakllantirish. | o‘quv-uslubiy materiallar (o‘quv mavzulari bo‘yicha ma’ruza matnlari va taqdimot materiallari, adabiyotlar, amaliy topshiriqlar, test savollari)ni sifatli tayyorlash, ularning elektron bazasini shakllantirish va tinglovchilar tomonidan mustaqil tanishishlarini ta’minlash maqsadida institut saytiga joylashtirish. | | | sun’iy intellekt” hamda “STATA amaliy-dasturiy paketi asosida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish” kurslarining o‘quv reja va dasturlari institut kengashi tomonidan shu yil 8 yanvardagi yig‘ilishi 1–sonli qarori bilan ma’qullangan va Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan.<br>Ushbu kurslarning ishchi o‘quv rejalari va ishchi o‘quv dasturlari institut direktori tomonidan shu yil yanvar-fevral oylarida tasdiqlangan va institut saytiga joylashtirilgan. |
| | | 2. Qayta tayyorlash va tegishli malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlash. | Har yili, 2025 yil 20 iyul / 20 oktabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>“Demografiya va mehnat statistikasi uslubiyoti va amaliyoti” o‘quv qo‘llanmasi chop etilgan. Toshkent. 2025 yil. 256 bet.<br>Mazkur o‘quv qo‘llanma Institutning “Statistika” kafedrasi tomonidan o‘qitilayotgan “Demografiya va mehnat statistikasi uslubiyoti va amaliyoti” malaka oshirish kursi doirasida ishlab chiqilgan o‘quv-tematik reja, o‘quv reja va o‘quv ishchi dastur bilan mos keladi. |
| 7. | Tizim xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining samaradorligi hamda statistika amaliyoti bilan bog‘liqligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilash. | 1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasi hujjatlari asosida Institut faoliyatini ichki baholashdan o‘tkazish va natijalari bo‘yicha Institutda ta’lim jarayoni sifatini hamda samaradorligini oshirib borish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish. | 2025 yil davomida, OTFvaIV hujjati ishlab chiqilishiga qarab | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 2. Institutda tashkil etiladigan o‘quv kurslarining sifati va samarasini oshirish hamda statistika amaliyoti bilan bog‘liqligini ta’minlash maqsadida professor-o‘qituvchilarning Statistika agentligi markaziy apparatida ham amaliy stajirovka o‘tashlarini joriy etish. | 2025 yil davomida, alohida reja asosida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, professor-o‘qituvchilar | **Bajarildi.** Institutning 2025-yil 17-sentyabrdagi 01/1-04-12-212-sonli xati va ilova qilingan rejaga asosan 18-sentabr-3-oktabr kunlari 4-nafar professor-o‘qituvchilar tasdiqlangan reja-grafik asosida Milliy statistika qo‘mitasida amaliyot o‘tishlari tashkil etildi. |
| | | 3. Qayta tayyorlash va malaka oshirish o‘quv kurslarining alohida amaliyot mashg‘ulotlarini Statistika qo‘mitasining tegishli tarmoq statistika boshqarmalarida hamda Toshkent shahar va Toshkent viloyati statistika boshqarmalarida tashkil etishni yo‘lga qo‘yish. | O’quv kursi davomida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.** Qayta tayyorlash o‘quv kurslarining alohida amaliyot mashg‘ulotlarini Statistika qo‘mitasining tegishli tarmoq statistika boshqarmalarida hamda Toshkent shahar va Toshkent viloyati statistika boshqarmalarida tinglovchilar jadval asosida 2025 yilning 3 iyulida amaliyot o‘tishdi. “Statistika (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” qayta tayyorlash kursi bo‘yicha 13-25 guruhining 2025 yil 3 iyulida amaliyot o‘taydigan tinglovchilari ro‘yixati. |
| | | 4. Tarmoq statistikasi uslubiyoti va amaliyoti bo‘yicha tashkil etiladigan malaka oshirish o‘quv kurslarining alohida mashg‘ulotlarini tegishli korxona va tashkilotlar faoliyati bilan tanishish orqali tashkil etishni yo‘lga qo‘yish. | O’quv kursi davomida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.** 2025-yilning yanvar-avgust oylarida “Statistika uslubiyoti va amaliyoti” o‘quv kursi (72-soatlik) bo‘yicha 10ta kurslar o‘tkazilgan va unda jami 166ta tinglovchilar ishtirok etishgan. Mazkur kursning quyidagi mashg‘ulotlari tegishli korxona va tashkilotlar faoliyati bilan tanishish |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | orqali tashkil etilishi yo‘lga quyilgan:<br>- Xizmatlar sohasi statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirishda qo‘llaniladigan hisobot va kuzatuv shakllari. Ko‘rsatkichlar tizimi va ularning shakllanishi;<br>- Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirishda qo‘llaniladigan hisobot va kuzatuv shakllari;<br>- Investitsiyalar va qurilish statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirishda qo‘llaniladigan hisobot va kuzatuv shakllari;<br>- Sanoat statistikasi va uning ko‘rsatkichlarini shakllantirish. Xalqaro tavsiyalar va tasniflagichlar;<br>- Tadbirkorlik statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish va ularning asosiy iqtisodiy faoliyat turini belgilash. |
| 8. | Tizim xodimlarini tegishli tayyorgarlikdan o‘tkazish va natijasi bo‘yicha test sinovi topshirishlarini tashkil etish. | 1. Agentlik bilan birgalikda tegishli tayyorgarlikdan o‘tadigan va natijasi bo‘yicha test sinovini topshiradigan xodimlar ro‘yxatini aniqlashtirish, bosqichma-bosqich o‘qitish reja-grafigini ishlab chiqish. | 2025 yil<br>6 / 10 mart | Z.Talipova,<br>Sh.Shukurov<br>V.To‘xtayev | **Bajarildi.**<br>MSQ tomonidan tegishli tayyorgarlikdan o‘tadigan va natijasi bo‘yicha test sinovini topshiradigan xodimlar ro‘yxati aniqlashtirilgan, ularni bosqichma-bosqich o‘qitish reja-grafigi ishlab chiqilgan. |
| | | 2. Xodimlarni tegishli tayyorgarlikdan o‘tkazish bo‘yicha tashkil etiladigan o‘quv mashg‘ulotlarining o‘quv materiallarini ishlab chiqish, tasdiqlash va tizim xodimlariga yetkazish. | 2025 yil<br>10 martgacha | Sh.Shukurov<br>B.E.To‘rayev,<br>A.Siddikov | **Bajarildi.**<br>MSQ tizimi xodimlarini tegishli tayyorgarlikdan o‘tkazish bo‘yicha tashkil etiladigan o‘quv mashg‘ulotlari o‘quv materiallari ishlab chiqilgan, tasdiqlangan va tizim xodimlariga |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | yetkazilgan. |
| | | 3. Aniqlangan ro‘yxat va tasdiqlangan reja-grafikka muvofiq o‘quv dasturi bo‘yicha tizim xodimlarini bosqichma-bosqich statistika metodologiyasi va amaliyoti, milliy statistika tizimining xalqaro standartlarga mosligi hamda uni takomillashtirish va rivojlantirish masalalariga doir tegishli tayyorgarlikdan o‘tkazish va natijasi bo‘yicha test sinovini topshirishlarini tashkil etish. | 2025 yil aprel oyi davomida | Z.Talipova, J.Shirinov | **Bajarildi.**<br>2025 yil 22 aprelda Milliy statistika qo‘mitasi tizimining statistika faoliyati bilan shug‘ullanadigan 1096 nafar xodimlari Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligida test sinovidan o‘tkazildi.<br>Shu bilan birga, 2025 yil 30 may sanasida 332 nafar xodim test sinovdan o‘tkazildi.<br>Qayta test natijalariga ko‘ra, yetarli ball to‘play olmagan 49 nafar xodimlar bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan, 24 nafar xodimlarning lavozimlari pasaytirilgan. |
| 9. | Davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo‘jalik birlashmalari, respondentlar, shu jumladan, tadbirkorlik subektlari xodimlarining statistika sohasidagi kasbiy mahoratini oshirish. | 1. Institutda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat tashkilotlari hamda xo‘jalik birlashmalarining idoraviy statistikani yuritish, kuzatuvlar o‘tkazish hamda Ochiq ma’lumotlar portali bilan ishlashga mas’ul xodimlarining har ikki yilda bir marta sohaga oid malakasini oshirish uchun shartnoma asosida “Statistika asoslari” (36 soatlik) o‘quv kursini tashkil etish, o‘quv kursining o‘quv rejasi va dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2025 yil aprel oyidan boshlab, dastur va reja-grafikka asosan | Sh.Shukurov B.To‘rayev, A.Siddikov, B.Ataniyazov | **Bajarildi.**<br>Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining sohaga oid malakasini oshirish uchun shartnoma asosidagi “Statistika asoslari” (36 soat) o‘quv kursining o‘quv-mavzu rejasi, o‘quv rejasi va dasturi ishlab chiqildi va institut saytiga qo‘yildi. |
| | | 2. Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikani tayyorlovchilar, ma’muriy statistikani yetkazib beruvchilarning noiqtisodiy oliy ma’lumotga ega bo‘lgan xodimlari uchun Institutda tashkil etiladigan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida shartnoma asosida ishtirok etishlariga sharoit yaratish. | 2025 yil aprel oyidan boshlab | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarilmoqda.**<br>Mazkur o‘quv kursini tashkil etish va o‘tkazish reja – grafigi loyihasi ishlab chiqilmoqda. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 3. Statistika hisobotlarini topshiruvchilar, jumladan, tadbirkorlik sub'ektlari xodimlarining statistika bo‘yicha savodxonligini va hisobotlarni to‘ldirish bo‘yicha ko‘nikmalarini oshirib borish maqsadida:<br>Institut tomonidan statistika yo‘nalishida shartnoma asosida qisqa muddatli (20 soatlik) sayyor o‘quv kurslarini tashkil etish;<br>sayyor o‘quv kurslarini o‘tkazish bo‘yicha reja-grafikni tuzish;<br>o‘quv kursining o‘quv dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>tasdiqlangan reja-grafikka va o‘quv dasturiga asosan shartnoma asosida xodimlarni o‘qitishni (shu jumladan, masofadan o‘qitish shaklida) tashkil etish va o‘tkazish. | 2025 yil aprel oyidan boshlab, alohida reja-grafik asosida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev M.Ahmedova | **Bajarildi.**<br>2025-yilda bajarilishini tizimli tashkil etish maqsadida, “Statistika asoslari” bo‘yicha 20 soatlik maxsus o‘quv kursi ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan reja – jadvalga muvofiq, mazkur o‘quv kursini, joriy yilning 20 -22-oktabr kunlari Jizzax viloyatining korxonalari, tashkilotlari va tadbirkorlik subektlari xodimlari uchun sayyor kurs tarzida tashkil etildi. |
| **IV. Institutning statistik tadqiqotlar, ilmiy va innovatsion ishlarni amalga oshirish bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish** | | | | | |
| 10. | Milliy statistika metodologiyasi va amaliyotini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo‘yicha Statistika agentligi buyurtmasi asosida statistika tadqiqotlari va innovatsion ishlanmalarni amalga oshirish ishlarini takomillashtirish. | 1. Milliy statistika uslubiyoti va amaliyotini xalqaro tajriba va tavsiyalarga muvofiq, shu jumladan, ustuvor xalqaro reyting va indekslarda O’zbekistonning ko‘rsatkichlarini yaxshilash, milliy BRMlari indikatorlarining metodologiyasini takomillashtirish maqsadida, Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan 2025-2027-yillarda amalga oshiriladigan statistik tadqiqotlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2025 yil 15 / 25 aprel | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev M.Ahmedova, D.Zakirov, boshqarma boshliqlari | **Bajarildi.**<br>Institutda 2025 yilda hamda 2025-2027 yillarda O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika buyurtmasi asosida bajariladigan ilmiy-tadqiqot dasturlari tayyorlandi va Milliy statistika qo‘mitasi raisi tomonidan 25.07.2025 yilda ijro uchun tasdiqlandi. |
| | | 2. Statistik tadqiqotlar dasturiga kiritilgan tadqiqot ishlarini bajarishda xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajribalarni mukammal o‘rganib chiqish va ular asosida milliy statistika metodologiyasi va amaliyotini takomillashtirish | Tadqiqot ishini bajarish davomida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev M.Ahmedova | **Bajarildi.**<br>“Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida 2025-yilda amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar dasturi”ning ijrosi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | bo‘yicha aniq takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish. | | | doirasida Milliy statistika amaliyotiga quyidagi metodologiyalar va amaliyotlar joriy qilindi:<br>- “Ishchi kuchi kuzatuvi va ma’muriy ma’lumotlar asosida mehnat statistikasini takomillashtirish” (Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 26-iyundagi 01/3-12-10-128-son xati);<br>- “O’zbekiston Respublikasida innovatsion faol korxonalarning faoliyatini statistik usullarda baholash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” (Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil 3-iyuldagi 01/3-15-08-130-son xati). |
| | | 3. Statistika sohasida sifatli ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida soha yo‘nalishi bo‘yicha mahalliy va xorijiy oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan memorandumlar imzolash va doimiy samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. | 2025 yil davomida va har yili | A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>Mahalliy va xorijiy oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan quyidagi memorandumlar tuzildi:<br>- Qozog‘istonning ESIL Universiteti bilan;<br>- Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti bilan;<br>- Bolgariyaning D.A.Tsenov nomidagi Iqtisodiyot Akademiyasi bilan;<br>- Yevropaning Madaniyat va Ijtimoiy-iqtisodiy Hamkorlik Assotsiatsiyasi (ACCESS) bilan. |
| | | 4. Statistika metodologiyasi va amaliyotini xalqaro standartlarga to‘liq moslashtirishdagi mavjud muammoli masalalar bo‘yicha statistika tadqiqotlarini sifatli amalga oshirish, milliy | Yillik tadqiqotlar dasturi doirasida | A.Abduvaliyev, M.Ahmedova | **Bajarildi.**<br>2025-yilda amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar dasturining ijrosiga ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi mahalliy |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | statistika amaliyotiga ilg‘or xalqaro tajribalar hamda innovatsion ishlanmalarni joriy etish, bu jarayonga ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi yetuk olimlar va soha mutaxassislarini keng jalb etish. | | | hamda xorijiy yetuk olimlar va soha mutaxassislarini keng jalb etish ishlari amalga oshirildi. Hususan, institutning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga hamkor mahalliy va xorijiy oliy ta’lim, ilmiy tadqiqot tashkilotlari olimlari va mutaxassislari jalb qilindi, ulardan:<br>- Ural Federal universitetining i.f.d., prof. I.D.Turgel “Turizm hisobi va statistikasini takomillashtirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” mavzusidagi ilmiy tadqiqotida jamoatchilik asosida (mehnat xaqqi to‘lovisiz) ishtirok etadi;<br>- Bolgariyaning D.A.Tsenov nomidagi Iqtisodiyot Akademiyasi Rektori professor M.Marinov “Yevropa Ittifoqi statistika tizimining standart va tavsiyalari asosida statistik ko‘rsatkichlarning metama’lumotlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” mavzusida (10.04.2025-y. №63.00-56) ;<br>- Yevropaning Madaniyat va Ijtimoiy-iqtisodiy Hamkorlik Assotsiatsiyasi direktori, professor M.Petrova “Yevropa Ittifoqi statistika tizimining standart va tavsiyalari asosida statistik ko‘rsatkichlarning metama’lumotlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” mavzusida (10.04.2025-y. №1-13/2025).<br>- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi “Budjet va iqtisodiy masalalar qomitasi” rahbari o‘rinbosari, i.f.d., prof. D.Q.Axmedov “Ishchi kuchi kuzatuvi va ma’muriy ma’lumotlar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | asosida mehnat statistikasini takomillashtirish” mavzusida;<br>— Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi direktorining o‘rinbosari, PhD, k.i.x. Z.A.Ashurov “O‘zbekiston Respublikasida innovatsion faol korxonalarning faoliyatini statistik usullarda baholash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” mavzusida;<br>- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Statistika” kafedrasi mudiri, PhD, dots. B.Utanov “Xalqaro taqqoslash dasturi asosida kambag‘allik darajasini aniqlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” mavzusidagi tadqiqotda ishtirok etishadi. |
| | | 5. Koreya Respublikasining Statistik tadqiqotlar institutining statistika yo‘nalishida ilmiy faoliyatni amalga oshirish tajribasini o‘rganish va hamkorlikda ilmiy-tadqiqotlarni (fundamental, amaliy, innovatsion) amalga oshirish mexanizmini yaratish. | 2025 yil 20 iyul / 25 sentabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, | **Bajarildi.**<br>Koreya Respublikasining Statistik tadqiqotlar institutining statistika yo‘nalishida ilmiy faoliyatni amalga oshirish tajribasini o‘rganish va hamkorlikda ilmiy-tadqiqotlarni (fundamental, amaliy, innovatsion) amalga oshirish mexanizmini yaratish vazifasini bajarish maqsadida onlain muloqot tashkil etish bo‘yicha xat bilan murojaat qilindi (2025 yil 10-apreldagi 01/1-08-12-113-sonli yo‘llanma xati). |
| 11. | Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat tashkilotlari, xo‘jalik birlashmalari hamda korxonalar va tashkilotlar | 1. Institut Ustaviga muvofiq, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat tashkilotlari hamda xo‘jalik birlashmalari, shuningdek, korxonalar va tashkilotlar bilan tegishli sohaning muammoli masalalari bo‘yicha | Har yili, 2025 yil 20 iyul / 30 oktabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, M.Ahmedova, T.Tuxtasinov | **Bajarildi.**<br>1.Milliy statistika qo‘mitasining buyurtmasi asosida Institutda bajarilishi rejalashtirilgan 2025-yildagi ilmiy-tadqiqotlar dasturi tayyorlandi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | buyurtmalari bo‘yicha shartnoma asosida amalga oshiriladigan statistik tadqiqotlarini kengaytirish. | har yili ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish va axborot-tahliliy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar tuzish. | | | va Milliy statistika qo‘mitasi raisi tomonidan 25.07.2025 y. tasdiqlandi.<br>2. Institutning 18.08.2025 y. 45-son buyrug‘iga asosan joriy yilning 20-22 avgust kunlari Institutda xalqaro ekspert Stiv Vale ishtirokida seminar-trening o‘tkazildi. Seminar-treningga ko‘maklashish maqsadida “Business Travel Leisure Group” MCHJ tomonidan Institut direktori konsultant va o‘rinbosari assistent sifatida jalb etilishti. |
| | | 2. Shartnoma asosidagi buyurtmalar bo‘yicha olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishga institut professor-o‘qituvchilari va ilmiy xodimlarini, doktorant va mustaqil izlanuvchilarni, zarur hollarda hamkor oliy va ilmiy-tadqiqot muassasalari olimlarini va xalqaro tashkilotlar soha mutaxassislarini keng jalb etish. | Ilmiy-tadqiqot ishini bajarishda | Sh.Shukurov<br>A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>Milliy statistika qo‘mitasining buyurtmasi asosida 2025 yilning yanvar-may oylarida bajarilgan ilmiy-tadqiqotlarda institutning professor-o‘qituvchilari, doktorantlari jamoatchilik asosida ishtiroki ta’minlandi.<br>Shuningdek, hamkor mahalliy va xorijiy oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlardan mutahasislar jalb etildi.<br>Jumladan, quyidagi ilmiy-tadqiqotlar:<br>1. Ishchi kuchi kuzatuvi va ma’muriy ma’lumotlar asosida mehnat statistikasini takomillashtirish.<br>Ishtirokchilar:<br>- institutning professor-o‘qituvchilari ishtiroki (Buyruq №1 03.01.2025 y. 1-ilova);<br>- institutning doktorantlari ishtiroki (Buyruq №18 14.02.2025 y. 1-ilova);<br>- institutning hamkor tashkilotlari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | ishtiroki (Buyruq №13 31.01.2025 y. 1-ilova).<br><br>2. O'zbekiston Respublikasida innovatsion faol korxonalarning faoliyatini statistik usullarda baholash bo'yicha uslubiy tavsiyalar.<br>Ishtirokchilar:<br>- institutning professor-o'qituvchilari ishtiroki (Buyruq №1 03.01.2025 y. 1-ilova);<br>- institutning doktorantlari ishtiroki (Buyruq №18 14.02.2025 y. 1-ilova);<br>- institutning hamkor tashkilotlari ishtiroki (Buyruq №13 31.01.2025 y. 1-ilova). |
| | | 3. Shartnoma asosida bajariladigan alohida ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini tijoratlashtirishga o'tish. | 2025 yildan boshlab | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarilmoqda.**<br>O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika buyurtmasi asosida Institutda 2025 yilda bajariladigan ilmiy-tadqiqot dasturiga muvofiq yaratilayotgan o'quv jarayonlarni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish va monitoring qilishga mo'ljalangan maxsus "Elektron platforma"da ilmiy-tadqiqotlarni tijoratlashtirish mexanizmi yaratilmoqda. |
| 12. | Institutda ilmiy-innovatsion faoliyat samaradorligini va ilmiy-tadqiqot ishlari sifatini oshirish. | 1. Institut professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlari, doktorantlari va mustaqil izlanuvchilarining Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi fundamental, amaliy va innovatsion hamda startap tadqiqotlar loyihalari tanlovlarida faol ishtirok etishini ta'minlash va rag'batlantirish orqali ilmiy tadqiqotlarni faollashtirish. | Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligining Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi ilmiy loyihalar tanlovida ishtirok etish uchun 2ta amaliy loyihalar topshirilgan, ular:<br>- "Barqaror rivojlanish sohasidagi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Milliy maqsad va vazifalarning monitoringini yuritishda mavjud bo‘lmagan Milliy indikatorlarning texnologiyasini yaratish” mavzusida amaliy tadqiqot loyihasi. Mazkur loyiha barcha bosqichlardan muvoffaqiyatli o‘tgan va bugungi kunda Innovatsiya agentligining Kengashidan tasdiqlanish bosqichida;<br>- “O’zbekistonda innovatsion faol korxonalarni statistik usullarda baholash uslubiyotini yaratish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi. |
| | | 2. Professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlarning ilmiy-tadqiqot yo‘nalishidagi samarali faoliyatini baholash va rag‘batlantirish tizimini joriy etish orqali Institutda ilmiy faoliyatni boshqarish va uning samaradorligi va natijadorligini oshirish. | 2025 yil<br>10 / 25 aprel | Sh.Shukurov,<br>A.Abduvaliyev,<br>Q.Xudoyqulov | **Bajarildi.**<br>Institut kengashining 2025 yil mart oyidagi 5-sonli qarori bilan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025- yil 24-fevraldagi 106-son qarorida belgilangan vazifalardan kelib chiqib institutda tasdiqlangan va yuritilayotgan “Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti xodimlari mehnatiga haq to‘lash, ustamalar, mukofotlar, qo‘shimcha to‘lovlar, rag‘batlantirish tarzidagi va boshqa to‘lovlar to‘g‘risidagi nizom”ga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi. |
| | | 3. Milliy statistika metodologiyasi va amaliyotining xalqaro tavsiyalarga mosligi, raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlar (Big data) bo‘yicha dolzarb | Yil davomida,<br>2025 yil<br>20 iyul /<br>10 dekabr | A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>Institutning professor-o‘qituvchilari, ilmiy xodimlari, doktorant va izlanuvchilarining dolzarb mavzularda |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mavzularda maqolalar, monografiya va ilmiy risolalar chop etish, doktorlik dissertatsiyasi ishlarini bajarish va natijalarini tizim amaliyotiga joriy qilish. | | | nufuzli xorijiy va mahalliy ilmiy jurnallarda maqolalar, monografiya va ilmiy risolalar tayyorlashlari va chop etishlariga ko‘maklashish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi:<br>1. 15.01.2025 y. Italiyaning “Statistic journal of IAOS” ilmiy jurnalining bosh muharriri, professor Piyetro Gennari tomonida on-layn vebinar tashkil etildi.<br>Vebinarda Institutning xodimlari, doktorantlari, tayanch doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari ishtirok etishdi va ilmiy jurnalida maqolalarini chop etishga tayorlash ko‘nikmalariga ega bo‘ldilar.<br>2. Institut Ilmiy kengashi yig‘ilishlarida quyidagi ilmiy nashrlarni chop etilishiga tavsiyalar berildi:<br>2.1. Ilmiy kengashining 2025-yil 13-yanvardagi 2-sonli qarori bilan:<br>- Z.Ziyayev, D.Tojiboyev va N.Nosirov muallifligida “STATA” amaliy-dasturiy paketi asosida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish” o‘quv-uslibiy qo‘llanma;<br>- S.Qulmatova, M.Muxitdinova va B.Abdujalilova muallifligidagi “Big Data va ma’lumotlarni tahlil qilish muammolari” mavzusidagi monografiyani;<br>- B.K.G’oyibnazarov, B.E.To‘rayev, A.J.Siddiqov, Sh.R.Djumaniyazov, M.N.Sunnatov hammualifligidagi “Statistika asoslari” o‘quv qo‘llanmasi chop etishga tavsiya berildi.<br>2.2. Institut Ilmiy kengashining |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | 2025-yil 30-yanvardagi 3-sonli qarori bilan M.H.Muxitdinova muallifligidagi “The effectiveness of artificial intelligence in statistical analysis of data stream” monografiyani chop etishga tavsiya etildi.<br>2.3. Institut Ilmiy kengashining 2025-yil 10-fevraldagi 4-sonli qarori bilan:<br>- B.K.G’ayibnazarov, B.E.To‘rayev, A.J.Siddiqov, Z.T.Yo‘ldoshev, M.N.Sunnatov, Sh.R.Djumaniyazov, D.D.Yeshniyazov hammuallifligida tayyorlangan “Demografiya va mehnat statistikasi uslubiyoti va amaliyoti” nomli o‘quv qo‘llanmasi;<br>-A.A.Mamadjanov muallifligida tayyorlangan “O’zbekiston milliy hisoblar tizimida turizm yordamchi hisobini takomillashtirish” mavzusidagi monografiyasi chop etishga tavsiya etildi. |
| | | 4. Institutning xalqaro ilmiy nashrlar bazalariga (Web of Science, Springer Nature, EBSCO va boshqalar) ulanishiga va professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, doktorantlarlarning ulardan faol foydalanishlariga ko‘maklashish. | Yil davomida, 2025 yil 20 iyul / 10 dekabr | A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>1. Institutda tashkil etilgan “Elektron statistika” xalqaro ilmiy nashrlar kutubxonasida xalqaro ilmiy-elektron nashrlardan “Znanium.ru” platformasidan foydalanish imkoniyati yaratildi.<br>“Znanium.ru” platformasidan 2025 yilning yanvar-mart oylarida (E-Line Press xatiga asosan 07.04.2025 y. №193/25-sonli) Institut va Statistika qo‘mitasi foydalanuvchilari tomonidan 166ta kitoblar, 93 xujjatlar va jami 4746 belik ma’lumotlar ko‘rilgan. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | 2. Institutning hamkori E-Line Press xatiga asosan 01.07.2025 yilda 98 mingdan ortiq xalqaro ilmiy nashrlar platformasini jamlagan EBSCO xalqaro platformasidan bepul foydalanish imkoniyati yaratiladi.<br>(E-Line Press xati 16.06.2025 y. №618/25-sonli) |
| | | 5. Institutda har yili statistika, iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarga doir dolzarb muammolarga bag‘ishlangan respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarni tashkil etish. | Har yili, 2025 yil noyabr - dekabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>2025 yilning 20-22 avgust kunlari O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi hamda Jahon bankining “O’zbekiston statistika tizimi salohiyatini mustahkamlash” loyihasi doirasida Institutda xalqaro darajadagi ekspert Stiven Vayli ishtirokida “Davlat organlari va tashkilotlarining statistik va ma’muriy ma’lumotlarni shakllantirishga mas’ul xodimlari uchun malaka oshirish kursi” tashkil etildi va o‘tkazildi.<br>Mazkur kursda vazirlik, tashkilotlarning statistkasiga mas’ul bo‘lgan xodimlari ishtirok etishdi. |
| 13. | O’zbekistonning ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi ko‘rsatkichlarini yaxshilash, BRMlari global indikatorlari asosida tegishli milliy indikatorlarni takomillashtirish va ko‘rsatkichlar metodologiyasini ishlab chiqish hamda bu jarayonda | 1. Vazirliklar, idoralar, davlat tashkilotlari hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan shartnomaga muvofiq ularning rasmiy statistikani tayyorlash, ma’muriy ma’lumotlar bilan ishlash va Ochiq ma’lumotlar portalida e’lon qilinadigan ma’lumotlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiyatlarini baholash va xalqaro tavsiyalarga muvofiq takomillashtirish loyihalarini ishlab chiqish. | Har yili, 2025 yil 20 iyul / 20 oktabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarilmoqda.**<br>Ochiq ma’lumotlar portalida e’lon qilinadigan ma’lumotlarni shakllantirish bo‘yicha uslubiyatlarini baholash va xalqaro tavsiyalarga muvofiq o‘rganilmoqda va o‘rganishlar natijasida takomillashtirish takliflari ishlab chiqiladi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | ilmiy salohiyat va amaliy faoliyat uyg‘unligini ta’minlash. | 2. Milliy BRM indikatorlari uchun mas’ul davlat organlari bilan birgalikda tegishli indikatorlar bo‘yicha mavjud metodologiyani, shuningdek, ma’lumotlarni yig‘ish uchun maxsus kuzatuvlar o‘tkazish faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha alohida loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirilishini tashkil etish. | Har yili, 2025 yil 20 iyul / 20 oktabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>O’zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligining Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi ilmiy loyihalar tanlovida ishtirok etish choralari ko‘rilmoqda, hususan:<br>1. “Iqtisodiyot va huquq fanlari” yo‘nalishida “Barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning monitoringini yuritishda mavjud bo‘lmagan Milliy indikatorlarning texnologiyasini yaratish” mavzusida AL-9124104751 shifridagi amaliy tadqiqot loyihasi tanlovda ishtirok etmoqda va bugungi kunda 4-chi bosqich (Yakuniy bosqich)dan o‘tmoqda.<br>2. O’zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligining 2025-yil 18-yanvardagi 01-07/201-sonli xatiga asosan, Institutda “O’zbekistonda innovatsion faol korxonalarni statistik usullarda baholash uslubiyotini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasini bajarish taklif etildi.<br>Loyihada O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 maydagi PQ-246-son qarorining 1-ilova 4-bandiga muvofiq “Biznes-korxonalar tomonidan tadqiqotlar va ishlab chiqarishlarga yalpi xarajatlarni oshirish” indikatorini hisoblash uslibiyotini yaratish vazifasiga bag‘ishlangan. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 3. Ustuvor xalqaro reyting va indekslar hamda milliy BRM indikatorlari bo‘yicha statistika sohasiga tegishli dolzarb muammolarni o‘rganishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari uchun belgilangan tartibda davlat buyurtmasini **shakllantirish** va har yili ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan e’lon qilingan tanlovlarda **ishtirok etish**. | Har yili, tanlov e’lon qilingan: sanadan 1 oy / sanaga qadar | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | |
| **V. Institut huzuridagi Oliy ta’limdan keyingi ta’lim instituti faoliyatining samaradorligini oshirish** | | | | | |
| 14. | Institut huzuridagi Oliy ta’limdan keyingi ta’lim instituti faoliyatini samarali tashkil etish, ilmiy kengashlar va dissertatsiyalar himoyalari tizimini xalqaro tajribaga muvofiqlashtirish. | 1. Institut huzuridagi 08.00.06-“Ekonometrika va statistika” va 08.00.14 – “Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari” ixtisosliklari bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash faoliyatining samaradorligini oshirish. | Doimiy, 2025 yil 20 iyul / 20 oktabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, S.G’ulomov, A.Siddikov | **Bajarildi.**<br>Institutning 2025-yil 14 martdagi 27-son buyrug‘i bilan 08.00.06 - “Ekonometrika va statistika” va 08.00.14 - “Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari” ixtisosliklari bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash faoliyatining samaradorligini oshirish belgilandi.<br>Hususan, barcha dissertatsiya ximoyalar internet tarmog‘i orqali jonli efirga uzatish tartibini yo‘lga qoyish belgilanga. |
| | | 2. Ilm-fan va amaliyotning integratsiyasiga erishish, milliy va xalqaro statistika metodologiyasi va amaliyotiga doir mavjud muammoli mavzularda ilmiy ishlarni bajarish va natijalarini amaliyotga joriy qilish. | Ilmiy ishlar natijasi bo‘yicha | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, D.Zakirov | **Bajarildi.**<br>Institut direktorining 2025-yil 5-martdagi 7-sonli buyrug‘i bilan Institutning 1 va 2 – bosqich doktorant, tayanch doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari hamda stajyor-tadqiqotchilarining ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish va ularning mutaxassislik bo‘yicha |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | nazariy bilimlarini mustahkamlash maqsadida “Ekonometrika va statistika”, “Raqamli iqtisodiyot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” hamda “STATA amaliy - dasturiy paketi” bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari tashkil qilindi.<br>Izlanuvchilar dissertatsiya-larining yakuni bo‘yicha uning ilmiy yangiligi mavzu doirasidagi amaliyotga joriy qilinganlik to‘g‘risida tasdiqlovchi ma’lumotnomasi bo‘lishi talab etiladi.<br>Joriy yilning tahlil davrida, Institutning izlanuvchisi A.R.Valixonovning 08.00.06-“Ekonometrika va statistika” ixtisosligi bo‘yicha tayorlangan “O’zbekiston Respublikasida turizm sektorining iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini statistik tadqiqoti” mavzusidagi dissertatsiyaga O’zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm Qo‘mitasi tomonidan (24.02.2025 y. №03-10-17-1696-son) berilgan.<br>Shuningdek, izlanuvchilarning ilmiy yangiliklari O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan beriladigan Mualliflik Guvohnomalarini olishga ko‘maklashiladi. |
| | | 3. Tayanch doktorantura (PhD), doktorantura (DCs) va mustaqil izlanuvchilikda tahsil olayotgan ilmiy izlanuvchilar ilmiy faoliyati va dissertatsiya ishlari himoyasi bo‘yicha muntazam monitoring yuritish orqali 2025 yilda va kelgusida | Har yili, har chorak yakunida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi taolim tizimini yanada takomillashtirish chora- |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | oliy ta’limdan keyingi ta’lim samaradorligini oshirish. | | | tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli qaroriga muvofiq Institutda har chorak yakuni bo‘yicha hamda yil yakuniy bo‘yicha doktorant va mustaqil izlanuvchilar faoliyati monitoringi o‘tkaziladi.<br>Monitoring jarayonida erishilgan natijalar va mavjud muammolar o‘rganiladi va tahlil qilinadi. Izlanuvchilarning natijadorlik ko‘rsatkichlari asosida ularga ko‘maklashish choralari ko‘riladi va monitoringning natijalari Institut buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi. |
| | | 4. Doktorlik dissertatsiyalari mavzularini statistika metodologiyasi va amaliyoti, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni statistik va iqtisodiy tahlil qilish, ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektga doir dolzarb mavzularda shakllantirish. | Har yili, 2025 yil 20 iyul / 20 oktabr | Sh.Shukurov A.Abduvaliyev, S.G’ulomov, A.Siddikov | **Bajarildi.**<br>Izlanuvchilarning tadqiqot mavzulari amaliyotda mavjud bo‘lgan dolzarb muammolarga yonaltirish uchun dissertatsiyalar uchun Ustuvor tadqiqot mavzular ro‘yxati ishlab chiqilgan va Statistika qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan holda izlanuvchilarga taqdim etilgan.<br>Ustuvor tadqiqot mavzulari 08.00.06.-«Ekonometrika va statistika» hamda 08.00.14-«Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari» ixtisosliklari bo‘yicha tuzulgan.<br>2025 yil 1-choragida qabul qilingan mustaqil izlanuvchilarning dissertatsiya mavzulari Statistika qo‘mitasi bilan kelishish maqsadida yo‘llanma xat bilan taqdim etildi (2025-yil 12-mart 01/1-08-12-69-sonli). |
| 15. | Institut professor- | 1. Institutda doktorantlar va mustaqil | Har yili, | Sh.Shukurov | **Bajarildi.** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | o‘qituvchilari va ilmiy xodimlari, shuningdek, ilmiy izlanuvchilarga samarali ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish. | izlanuvchilarning samarali ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishlari uchun zarur sharoitlarni (jihozlangan xona, internetga ulangan kompyuter, printer va boshqalar) yaratib berish, shuningdek, aloqador oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari laboratoriyalaridan foydalanishda amaliy yordam ko‘rsatish. | 2025 yil 20 iyul / 20 oktabr | A.Abduvaliyev, Q.Xudoyqulov | O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi taolim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli doirasida 08.00.06.-“Ekonometrika va statistika” hamda 08.00.14-“Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari” ixtisosliklarida tahsil olayotgan 1 va 2 kurs tayanch doktorantlar uchun Institutda amaliyot tizimi joriy qilindi.<br>Amaliyot O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasida 1 oy o‘tiladi. Doktorantlar agentlikning boshqarmalariga dissertatsiya mavzulari bo‘yicha biriktirilishadi, natijada dissertatsiyada yaratilgan ilmiy yangiliklarni amaliyotda tajriba-sinovdan o‘tkazish imkoniyati bo‘ladi. |
| | | 2. Institut professor-o‘qituvchilari va ilmiy xodimlari, shuningdek, ilmiy izlanuvchilarda xalqaro ilmiy nashrlar bazalaridan erkin foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularga tadqiqot doirasida yuqori iqtibosli ilmiy nashrlarni kuzatib borish, nufuzli ilmiy jurnallarda ilmiy-tadqiqot natijalarini chop etish, tadqiqot yo‘nalishi bo‘yicha xalqaro darajadagi taniqli olimlarning ilmiy tadqiqotlari bilan bevosita tanishish imkoniyatini yaratish maqsadida Jahon bankining “O’zbekiston statistika tizimi salohiyatini mustahkamlash” loyihasini amalga oshirish uchun ajratilgan mablag‘lar hisobidan **“Xalqaro ilmiy nashrlar elektron kutubxonasi”**ni tashkil etish. | 2025 yil mart | E.Ziyoyev, Sh.Shukurov A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-martdagi 113-son qarori hamda “O’zbekistonda statistika tizimi salohiyatini mustahkamlash” loyihasi mablag‘lari hisobiga Institutda “Elektron statistika” xalqaro ilmiy nashrlar kutubxonasi tashkil etildi va uning faoliyatini amalga oshirish uchun:<br>- Institutning 2025-yil 14 yanvardagi 5-sonli buyrug‘i bilan “Elektron statistika” xalqaro ilmiy nashrlar kutubxonasining asosiy faoliyatlari belgilandi;<br>- Institut Ilmiy kengashning 2025-yil |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | 10 fevraldagi 4-son bayoni hamda Institutning 2025-yil 14-fevraldagi 19-son buyrug‘i bilan “Elektron statistika” xalqaro ilmiy nashrlar kutubxona Nizomi hamda 2025 yilda asosiy vazifalarini qamrab olgan Chora-tadbirlari tasdiqlangan.<br>26.02.2025 y. Jahon bankining mas’ul vakillari ishtirokida “Elektron statistika” xalqaro ilmiy nashrlar kutubxonasining ochilishi bo‘lib o‘tdi.<br>“Elektron statistika” xalqaro ilmiy nashrlar kutubxonasida so‘nggi yillardagi ilmiy kitoblar hamda elektron ilmiy resurslardan foydalanish sharoitlari yaratildi, jumladan, “Znanium.ru” platformasidan foydalanish imkoniyati yaratildi.<br>“Znanium.ru” resurslaridan 2025 yil davomida institut xodimlari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, stajyor tadqiqotchilar va o‘quv kurslari tinglovchilari bepul foydalanish imkoniyatiga ega. |
| | | 3. “Xalqaro ilmiy nashrlar elektron kutubxonasi” uchun xona ajratish, tegishli moddiy-texnika qimmatliklari bilan jihozlash, Internet tezligini oshirish, dasturiy ta’minot bilan ta’minlash. | 2025 yil mart | E.Ziyayev, Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, Q.Xudoyqulov | **Bajarildi.**<br>“Elektron statistika” xalqaro ilmiy nashrlar elektron kutubxonasi institutning 2-qavatidagi 209-xonada joylashtirildi va zarur mebel, ko‘rgazmali materiallar va texnik vositalar va dasturiy ta’minot bilan ta’minlandi. |
| **VI. Institutning mahalliy va xalqaro hamkorligini kengaytirish** | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 16. | Institutning faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha mahalliy va xorijiy oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish. | 1. Statistika agentligi tizimi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, statistika metodologiyasi va amaliyotining dolzarb masalalarida statistik tadqiqotlarni amalga oshirish bo‘yicha Institut faoliyatini takomillashtirish maqsadida:<br>ilg‘or mahalliy va xorijiy oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish;<br>tuzilgan hamkorlik shartnomalari doirasida hamkor muassasalar o‘rtasida samarali tajriba almashishni yo‘lga qo‘yish va shu asosida institut faoliyatini takomillashtirib borish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish. | Har yili, 2025 yil 20 iyul / 20 oktabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev G.Umarova | **Bajarildi.**<br>Bugungi kunda Institutda 11 ta xorijiy 7ta mahalliy oliy taolim va ilmiy tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlik memorandumlari amalga oshirilmoqda. Hamkorliklarning amaliy natijadorligiga erishish maqsadida:<br>- Muddatlari o‘tgan memorandumlarni qayta rasmiylashtirish ishlari amalga oshirildi, ular, Qozog‘istonning ESIL Universiteti, Qozog‘iston Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi Akademiyasi hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti bilan memorandumlar yangi vazifalarni belgilagan holda qayta rasmiylashtirildi.<br>- 13.02.2025 y. Rossiyaning Ural Federal Universitetining (33.01-32/079-sonli taklif xatiga asosan) hamkorlik memorandumi doirasida A.A.Abduvaliyev universitetning magistrlari uchun onlayin ilmiy-seminarda «Uzbekistan: tsifrovaya transformatsiya i ustoychivoye razvitiye» maorusa bilan ishtirok etdi. |
| | | 2. Koreya statistika boshqarmasining Statistika trening instituti va Statistik tadqiqotlar instituti bilan imzolangan uch tomonlama hamkorlik memorandumiga muvofiq Koreya tajribasi asosida:<br>Institut faoliyatini tubdan takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, amaliyotga joriy etishning aniq choralarini belgilash; | Hamkorlik memorandumi doirasida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>1. Milliy statistika qo‘mitasiga 2025-yil 17 iyulda 01/2-01-12-179-sonli xat bilan Institutda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini Koreya malaka oshirish kurslarini o‘rganish asosida yangidan tashkil etiladigan kurslar bo‘yicha asoslantirilgan taklif |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | o‘quv dasturlarini yangilash, o‘quv jarayonlariga xorijiy ilmiy pedagoglarni (shu jumladan, videokonferensaloqa orqali) jalb qilish;<br>o‘quv jarayonlarini sifatli tashkil etish maqsadida onlayn malaka oshirish kurslari uchun elektron platforma yaratish va ishga tushirish;<br>qo‘shma tadqiqot loyihalarini amalga oshirish. | | | tayyorlandi va kiritildi.<br>2. Qo‘shma tadqiqot loyihalarini amalga oshirish maqsadida onlain muloqot tashkil etish bo‘yicha xat bilan murojaat qilindi (2025 yil 10-apreldagi 01/1-08-12-113-sonli yo‘llanma xati). Bundan ko‘zlangan maqsad hamkorlikda bajariladigan ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarini va mavzularini muhokama qilish. |
| | | 3. O’zaro hamkorlik shartnomalari doirasida:<br>Institutda xorijiy hamkorlar uchun malaka oshirish va stajirovka imkoniyatlarini taklif etish, xorijdan doktoranturada o‘qish, mustaqil izlanuvchi sifatida faoliyat ko‘rsatish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, malaka oshirish, stajirovkadan o‘tish mexanizmini yaratish;<br>xorijiy va mahalliy hamkor oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yangi o‘quv adabiyotlarini tayyorlash va mavjud resurslardan foydalanish borasida hamkorlikni kuchaytirish;<br>malaka oshirish, stajirovka o‘tash, maxsus kurslarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish;<br>xalqaro konferensiya, ilmiy-amaliy seminar, vebinar va davra suhbatlarini tashkil etish, ilmiy konferensiyalar to‘plamlarini indeksatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha shartlarni o‘rganib chiqish;<br>mavjud o‘quv, ilmiy, uslubiy resurslardan foydalanish. | Har yili, 2025 yil 20 iyul / 20 oktabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | **Bajarildi.**<br>Koreya statistika idorasi (KOSTAT) ko‘magida Koreya Hukumatining beg‘araz yordami dasturi (ODA) doirasida Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida Koreya statistika idorasi mutaxassislari ishtirokida O’zbekistonda treninglar tashkil etish rejalashtirilgan.<br>**Rejaga muvofiq:**<br>1. Institutda xorijiy KOSTAT ishtirokida statistika fanlari bo‘yicha malaka oshirish kurslari KOSTATda (avgust oyida) va Institutda (oktabr oyida) tashkil etiladi. Bunda, KOSTATning o‘quv adabiyotlaridan hamda o‘quv, ilmiy, uslubiy resurslaridan foydalaniladi.<br>2. 2025 yil 24-iyuldagi Koreya statistika boshqarmasining rasmiy xatiga asosan 27 iyul-2 avgust kunlari Koreyaning ishchi guruhi tashrifi amalga oshirildi va ushbu |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 4. Institut faoliyatini rivojlantirish va budjetdan tashqari mablag‘lar tushumini ko‘paytirish maqsadida:<br>xalqaro tashkilotlar va jamg‘armalar bilan ham hamkorlikni kuchaytirish va shu orqali grant va beg‘araz yordam ko‘rinishidagi mablag‘larni jalb qilish;<br>professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va doktorantlarning xorijiy grantlar tanlovlarida ishtirok etishini yo‘lga qo‘yish. | Har yili, 2025 yil 20 iyul / 20 oktabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | yo‘nalishdagi masalalar muhokama qilindi.<br>***Loyiha asosi:*** *Koreya statistika idorasi taklifi (Koreya elchixonasining 2023 yil 26 maydagi KUZ-22-0285-sonli xati).*<br><br>**Bajarildi.**<br>1. Koreya statistika idorasi (KOSTAT) ko‘magida Koreya Hukumatining beg‘araz yordami dasturi (ODA) doirasida Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida malaka oshirish tizimini moddiy-texnik qo‘llab quvvatlash rejalashtirilgan.<br>Amalga oshirilgan ishlar natijasida institutning 1ta o‘quv xonasi to‘liq ta’mirlandi, kompyuter va o‘quv faoliyatiga zaruriy uskuna va moddiy jihozlar bilan to‘liq ta’minlandi.<br>2025 yilning 27 noyabr kuni rasmiy vakillar ishtirokida ushbu o‘quv xonasining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.<br>***Loyiha asosi:*** *Koreya statistika idorasi taklifi (Koreya elchixonasining 2023 yil 26 maydagi KUZ-22-0285-sonli xati).* |
| **VII. Institutning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yo‘nalishida** | | | | | |
| 17. | Institut va uning huzuridagi mehmonxona turidagi yotoqxonaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash | 1. Institut o‘quv binosining majlislar zali va yotoqxona binosini kapital ta’mirlash, rekonstruksiya qilish va jihozlash. | Loyiha smeta hujjati va mablag‘ ajratishga qarab | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, Sh.Xudoyarov, L.Yo‘ldoshev | **Bajarildi.**<br>Institutning 26.08.2025 y. 50-son buyrug‘iga asosan Insitutning asosiy moddiy-texnik vositalari xatlovdan o‘tkazildi. Xatlov natijasida, o‘quv |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | va samarali faoliyat yuritishini ta’minlash. | | | | faoliyatiga zaruriy moddiy-texnik vosita va jihozlar bo‘yicha takliflar tayyorlandi. Xususan, institutning katta majlislar xonasida 35 kishiga mo‘ljallangan kompyuter va internetdan foydalanadigan o‘quv xonasi sharoitlarini yaratish (kompyuterlar, elektr simlari, internet simlar va bshq.) |
| | | 2. Institut faoliyatini transformatsiya qilish jarayonida uning tegishli moddiy-texnik vositalar (kompyuter va boshqa tashkiliy texnika, mebel va boshqalar) bilan jihozlanganlik holatini xatlovdan o‘tkazish va qo‘shimcha talab etiladigan texnik vositalar va jihozlar bo‘yicha aniq ro‘yxatni shakllantirish. | 2025 yil davomida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, Sh.Xudoyarov L.Yo‘ldoshev | **Bajarildi.**<br>**1.** Institutning “Elektron statistika” xalqaro ilmiy nashrlar kutubxonasi Jahon bankining moliyaviy ko‘magi asosida 200 ta ilmiy, badiy, motivatsion turdagi zamonaviy adabiyotlar xarid qilib berilgan.<br>Shuningdek, 2025 yil uchun “Znanium.ru” platformasidan foydalanish imkoniyati yaratilgan.<br>**2.** Alisher Navoyi nomidagi Milliy kutubxonaning 18.08.2024 y. xatiga asosan Institut uchun bepul tarzda quyidagi ilmiy adabiyotlar resurslaridan foydalanish imkoniyati yaratildi: natlib.uz, media.natlib.uz, diss.natlib.uz, nodir.natlib.uz, press.natlib.uz, qr.natlib.uz.<br>**3.** Kutubxona fondini boyitish maqsadida beg‘araz yordam tariqasida:<br>- Milliy statistika qo‘mitasining axborot resurs markazidan 35 dona kitoblar (xat 21.02.2025 y. 01/1-08-12-9) olindi;<br>- O’zbekiston Yozuvchilar yushmasidan 30 dona badiiy kitoblar olindi (xat 21.02.2025 y. 01/4-03-12-50). |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | **4.** Institutning hamkori E-Line Press (Xat16.06.2025 y. №618/25-sonli) Institut uchun 01.07.2025 yilda 98 mingdan ortiq xalqaro ilmiy nashrlar platformasini jamlagan **EBSCO** xalqaro platformasidan bepul foydalanish imkoniyati yaratiladi. |
| | | 3. Institut Axborot-resurs markazini Institutning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan tegishli ravishda jihozlash, Milliy kutubxona, oliy ta’lim muassasalari ARMlari elektron bazasiga ulash, shuningdek, kitoblar, adabiyotlar, gazeta va jurnallar, statistika to‘plamlari bilan ta’minlash. | Yil davomida, 20 iyul / 20 oktabr | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, Sh.Xudoyarov L.Yo‘ldoshev | **Bajarildi.**<br>Koreya statistika idorasi (KOSTAT) ko‘magida Koreya Hukumatining beg‘araz yordami dasturi (ODA) doirasida Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining 107-o‘quv xonasi to‘liq qayta ta’mirlandi hamda mazkur xona yangi zamonaviy kompyuterlar va texnika vositalari bilan jihozlandi.<br>Shuningdek, mazkur o‘quv xonasi kompyuterlari “STATA” tahliliy dasturiy paket bilan jihozlanadi. |
| | | 4. Institut auditoriyalarini zarur mebellar, o‘quv-laboratoriya uskunalari, videokonferensaloqa qurilmalari, proyektor va boshqa inventarlar, shuningdek, ko‘rgazma materiallar (soha bo‘yicha qonun, Prezident farmonlari, qarorlari, hukumat qarorlari, Statistika agentligi to‘g‘risida nizom, mamlakat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va xalqaro reytinglardagi o‘rni va boshqalar) bilan jihozlash. | 2025 yil davomida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, Sh.Xudoyarov, L.Yo‘ldoshev | |
| | | 5. Institutda tarmoq statistikasi uslubiyoti va amaliyoti bo‘yicha malaka oshirish kurslarining amaliyot bo‘yicha mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun maxsus auditoriya tashkil etish, uni talab asosida | 2025 yil davomida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, Sh.Xudoyarov, L.Yo‘ldoshev | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | jihozlash (statistika hisobotlari shakllari, ularni to‘ldirish bo‘yicha ko‘rsatmalar, uslubiy qo‘llanmalar, yeStat-4 dasturining ishlash sxemasi, statistika byulletenlari va to‘plamlar aks etgan stendlar va boshqalar). | | | |
| **VIII. Tizim xodimlarini kasbiy malaka, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha huquqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish** | | | | | |
| 18. | Tizim xodimlarining kasbiy malaka, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishning boshqa shakllari sifatida amaliy va ilmiy seminarlar, vebinarlar, trening va mahorat darslari, davra suhbatlari hamda amaliy faoliyatga doir test sinovlarini tashkil etishni yo‘lga qo‘yish. | 1. Xodimlarning faoliyat sohasi bo‘yicha kasbiy malaka, bilim va ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirib borish maqsadida tarmoqlar va hududlar statistikasi uslubiyoti va amaliyoti hamda xalqaro standartlar bo‘yicha har chorakda vebinar shaklida mashg‘ulotlar tashkil etish, natijalari bo‘yicha amaliy faoliyatga doir test sinovlarini o‘tkazish. | 2025 yil davomida, oylik reja asosida | Z.Talipova, boshqarma boshliqlari | **Bajarildi.**<br>Institutda 2025-yil yanvar-noyabr oylarida 6ta malaka oshirish kurslari bo‘yicha yakuniy test sinovlari o‘tkazilgan. Yakuniy test sinovlarda jami 342 ta tinglovchilar ishtirok etishgan, xususan:<br>- “Milliy hisoblar tizimi” o‘quv kursi – 11ta tinglovchilar, yakuniy testda o‘rtacha 80 ball;<br>- “Statistika (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” o‘quv kursi – 19 ta tinglovchilar, yakuniy testda o‘rtacha 71,7 ball;<br>- “Statistika uslubiyoti va amaliyoti” o‘quv kursi – 178 ta tinglovchilar, yakuniy testda o‘rtacha 72,4 ball;<br>- “Uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish” o‘quv kursi – 88 ta tinglovchilar, yakuniy testda o‘rtacha 69,5 ball;<br>- “Raqamli iqtisodiyotda katta hajmdagi ma’lumotlar (Big data) va sun’iy intellekt” o‘quv kursi – 25 ta tinglovchilar, yakuniy testda o‘rtacha 80,8 ball;<br>- “STATA” amaliy-dasturiy paketi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | asosida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish o‘quv kursi – 49 ta tinglovchilar, yakuniy testda o‘rtacha 89,4 ball<br>- “Tadbirkorlik statistikasi uslubiyoti va amaliyoti” o‘quv kursi – 12 ta tinglovchilar, yakuniy testda o‘rtacha 74,5 ball;<br>- “Investitsiyalar va qurilish statistikasi uslubiyoti va amaliyoti” o‘quv kursi – 15 ta tinglovchilar, yakuniy testda o‘rtacha 78,9 ball; |
| | | 2. Tizim xodimlarining kasbiy malaka, bilim va ko‘nikmalarini uzluksiz oshirib borish maqsadida Statistika agentligining tarmoq boshqarmalari va hamkor muassasalar bilan birgalikda Institutda milliy statistika metodologiyasi va amaliyoti, tarmoqlar statistikasi, xalqaro statistika, statistika amaliyotiga raqamli texnologiyalarni qo‘llash, zamonaviy dasturiy paketlardan foydalanish masalalari bo‘yicha ilmiy va amaliy seminarlar, trening va mahorat darslari, davra suhbatlarini (an’anaviy, masofaviy va sayyor shakllarda) tashkil etish. | 2025 yil davomida, alohida reja asosida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | |
| | | 3. Tashkil etiladigan ilmiy va amaliy seminarlar, trening va mahorat darslari, davra suhbatlari samarasini oshirish maqsadida Statistika agentligining tarmoq statistika boshqarmalari rahbar va yetuk mutaxassislarini, soha bo‘yicha taniqli olimlar va amaliyotchilarni taklif etish. | 2025 yil davomida, tadbir dasturi asosida | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev | |
| 19. | Institutda korrupsiya va uni yuzaga keltiruvchi | 1. Institutda korrupsiyaning oldini olish maqsadida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va aniqlangan | Har yili, 2025 yil | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, | **Bajarildi**<br>2025-yilning 2-iyul kuni Institut |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | omillarning oldini olish, tizim xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha huquqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish. | xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli choralarni belgilash va amalga oshirish. | 20 iyul / 20 oktabr | T.Tuxtasinov | jamoasi hamda doktorant va izlanuvchilari uchun, korrupsiya elati, diniy ekstremizm, onlayn firibgarlik mavzulariga bag‘ishlangan **“Ogohlik davr talabi”** mavzusida davra suhbati ztkazildi.<br>Davra suhbatini Institutning Bosh yurist konsulti, 2-darajali Adliya maslahatchisi T.To‘xtasinov tomonidan olib borildi. |
| | | 2. Statistika agentligi tizimi xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy bilim va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida, alohida malaka oshirish kurslari o‘quv rejasi va dasturiga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amaldagi qonunchilik va chora-tadbirlarga doir dars soatlarini kiritish. | 2025 yildan boshlab, o‘quv kursi tashkil etilishiga qarab | Sh.Shukurov, A.Abduvaliyev, T.Tuxtasinov | **Bajarildi**.<br>“Statistika (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) “ (576 soat) qayta tayyorlash kursida 2025 yil o‘quv rejaga umumiy tayyorgarlik bo‘limiga “Davlat statistika organlari xodimlari faoliyatini tartibga solishning qonunchilik me’yorlari” 2 soatlik dars kiritilgan.<br>Bundan tashqari institutda tashkil etilgan yanvar-iyul oylarida malaka oshirish kurslarida 2025-yil 25-aprel kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-147-son Qarori va 13-iyunda “Korrupsiya illati inson huquq va erkinlari kafolatlarini izdan chiqaradi, jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltiradi” mavzulari yuzasidan targ‘ibot va tushuntirish tadbirlari olib |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | borildi. |